

МАКТАБ О‘QUVCHILARIDA MILLATLARARO MULOQOTNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

*Osiyo xalqaro universiteti magistranti
Axmedova Gavhar Faxriddinova*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarni millatlararo muloqotni shakllantirishning pedagogik xususiyatlari, globallashuv jarayonlari, bag‘rikenglik, tolerantlikni rivojlantirish, o‘quvchilarni o‘zaro hurmat, diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: millatlararo munosabat, millatlararo muloqot madaniyati, ko‘p millatlilik, kompetensiya, globallashuv.

Jahon ta’lim tizimida maktab o‘quvchilarini tarbiyalash, aqliy imkoniyatlarini kengaytirish, sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ularni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish mexanizmlari tadbiq etilmoqda. Maktab o‘quvchilarini ta’limda ijtimoiylashuv ko‘nikmalarini, ularning hissiy bilish imkoniyatlarini kengaytirish, o‘zining va tengdoshlarining hissiy holatini anglash xususiyatlarini rivojlantirish, kattalar bilan munosabatni to‘g‘ri tashkil eta olish, o‘zini anglash, shaxslararo muloqotda emotsional ta’sir imkoniyatlarini o‘zlashtirish va kengaytirish yo‘nalishidagi tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida maktabgacha yoshdagi bolalarning empatiyasi, ijtimoiylashuvi, shuningdek, ijtimoiy-hissiy rivojlanishida adaptiv va interaktiv texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, o‘quvchilarning o‘zini va o‘zgalarni anglashi, muloqotga kirishish ko‘nikmalarini egallashi, badiiy tasavvur va tafakkurini rivojlantirish, mashg‘ulotlarda axborot texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta’limda nazariya hamda amaliyot uyg‘unligini ta’minlash kabi masalalarga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor berilmoqda. Bolalarni axloqiy-ma’naviy tarbiyalashni aynan ularni ijtimoiy-hissiy rivojlantirishdan boshlash zarur. Zero, muloqot ishtirokchilari suhbatdoshlarining hissiy holatini anglamasa, o‘zlarining hissiyotlarini samarali boshqarishni bilmasa, hech qanday muloqot, o‘zaro ta’sir ijobiy natija bermasligi mumkin. O‘zining hissiyotlarini tushunish, anglash o‘zida kelayotgan shaxsning shakllanishida muhim bosqich bo‘lib hisoblanadi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda maktablarida o‘quv mashg‘ulotlarni tashkil etishning yangi shakllarini tatbiq etish, ta’lim-tarbiyaning sifati va samaradorligini oshirish, bolalarning intellektual hamda emotsional imkoniyatlarini ijtimoiy

ehtiyojlarga mos tarzda takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratildi, shuningdek, moddiy-texnika bazasi rivojlantirilmoqda.

Ma'lumki, bugungi kunda globallashuv hodisasi turli millat va elat vakillarining bir-biriga yaqinlashuv jarayoni bilan ham izohlanadi. Bu ayniqsa, yoshlar qatlami, xususan o'quvchilar bilan bog'liq munosabatlarda faol namoyon bo'ladi. Turli millat yoshlarining bilim olish maqsadida birlashishi, bir-biri bilan faol muloqotga kirishi ulardan muayyan ijtimoiy-madaniy malakalarni talab qiladi. Shunday ekan, o'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, turli xalqlar, etnik birliklarga mansub yoshlarning madaniy hamkorligi, o'zaro muloqotini shakllantirish va rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Keyingi paytlarda xalqaro tashkilotlar tomonidan barcha xalqlar uchun konsensusga asoslangan, o'zaro muloqot madaniyatiga tayanuvchi yondashuvlarni faol tadbiiq etishga dolzarb masala sifatida e'tibor qaratilmoqda.

Murakkablashgan, ammo tizimli axborotlashgan dunyoning harakatchan intellektual qiyofasi so'nggi o'n yilliklar ichida «aqli» migratsiya maqomi bilan o'zining sotsiomadaniy manzarasini namoyon qilmoqda. Ijtimoiy-ma'naviy hayotga ta'sir o'tkazar ekan, intellektual migratsiya jarayonlari oqibatida yuzaga kelayogan turli mazmundagi global muammolar kishilarning turmush tarzi, kundalik hayot va tafakkur tarzi, xususan, milliy mentalitet va identiklikdagi o'zgaruvchan hodisalarni o'rganishga majbur qilmoqda».

Ayni paytda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish, totuvlikni ta'minlash jarayonini tadqiq etish borasida qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shu bilan birga, globallashuv va integratsiya jarayonlarining mohiyati, xususiyatlari, millatlararo totuvlikni mustahkamlash, millatlararo nizolarni bartaraf qilish, millatlararo munosabatlar, yoshlar submadaniyati, migratsiya va boshqa yo'nalishlar o'ziga xos dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Mamlakatimizda millatlararo munosabatlarni barqaror saqlash va rivojlantirishga, turli millat vakillari, xususan yoshlarda o'zaro totuvligini mustahkamlash va rivojlantirishda davlat va mahalliy boshqaruv tizimlari, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirish, fuqarolarning tolerantlikka asoslangan ma'naviyatini yanada yuksaltirish bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratilmoqda. «Millatlararo totuvlikni ta'minlashda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 138 ta milliy madaniy markazning o'rni beqiyos. Aynan shu nuqtai nazardan kelgusida ham millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi».

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida», 2019 yil 21 oktabrdagi PF-5850-son «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeiini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, 2017 yil

23 maydagi «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-2993-sonli qarori hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi. «Yangi O‘zbekiston strategiyasi» da belgilab berilgan vazifalar, Prezident Sh.M.Mirziyoevning mamlakatimizni barqaror, izchil va jadal rivojlantirishga bag‘ishlangan asarlari, farmon va qarorlari, konseptual g‘oyalari tadqiqotning ilmiy metodologik asoslarini belgilab bergan. Dunyoda va O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar, etnomadaniy jarayonlar va etnik muammolarni o‘rganish, tadqiq qilish borasidagi ishlarini quyidagicha tasniflash mumkin. Xorij olimlarining millatlararo totuvlik, millatlararo munosabatlar va u bilan bog‘liq masalalar G.Garfinkel, V.Vundt, O.Kont, J.Mill, M.Mid, R.Mills, G.Antonos, E.Bogardus, E.Xobsbaum, A.King va B.Shnayder tadqiqotlarida o‘rganilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida millatlararo totuvlik, millatlararo munosabatlar sotsiologiyasi va u bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan jarayonlar tahlili etnosotsiolog, etnopsixolog, faylasuf, siyosatshunoslar B.Porshnev, A.Luriya, Yu.Bromley, I.Kon, V.Xannanova, P.Tokar va N.Omelaenkolarining tadqiqotlarida keltirilgan. Millatlararo muomala madaniyatini shakllantirish muammolari bo‘yicha bir qator olimlar ilmiy ishlar olib borganlar: A.B.Bagdasarov, G.M.Valetova, G.N.Volkova, G.O.Darakchyan, Ye.A.Juravleva, L.A.Zaxarova, O.N.Popova, M.I.Prokoxina, M.G.Gaychinov, P.Yu.Tyuponnikova va boshqalar. Ularning tadqiqotlarida turli millatlarga bo‘lgan hurmat ehtiromi bilan o‘ziga xos bo‘lgan g‘oyalari va faoliyat turining maxsus sohalariga nisbatan bo‘lgan munosabat va madaniyatini kashf qilishi shaxsning o‘zligini, muayyan millat vakili ekanligini namoyon qiladi. Ularning fikricha, millatlararo muomala madaniyati, mamlakat va mintaqalarda o‘z tarixini va mahaliy madaniyati bilish, turli xil millatlar bilan aloqadagi odob-axloq qoidalarini, o‘ziga xos millatlararo munosabatlarni bilish bilan ifodalanadi. Ammo, yoshlarning odamlarga nisbatan, ularning kelib chiqishi, millati, dini, millatiga xosligidan qat’iy nazar ularga nisbatan hamdardlikka qodir bo‘lishlarini ta’minlash muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish muammosi ko‘plab olimlarning tadqiqot ob’ekti bo‘lib kelgan. Jumladan, M.A.Ariarskiy, D.M.Abdurzaqov, O.N.Belinskiy, I.M.Vereщagina, V.M.Grusman, F.I.Minjushev, T.G.Kiseleva, V.G.Murashko, L.I.Mixaylov va boshqalar. Olimlar yoshlarning ijodiy faoliyati jarayonida shaxsning mustaqil madaniy rivojlanishidagi samaradorlikni ta’minlash, ijtimoiy-madaniy ijod, pedagogik sharoitlardagi qiziqishlari, madaniy-xordiq faoliyatlari va talablari, ijodiy imkoniyatni qoniqtirish uchun qulay zamin ekanligini, ta’kidlab o‘tadilar. Ijtimoiy-madaniy ijokorlikdagi yangi muhim ahamiyatga ega izlanishlar, yosh avlod shaxsining ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lgan, bilim to‘plashni ta’minlaydigan, interaktiv usullarni tadbiq qilishga qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlarda mavzuga oid nazariy g'oya va xulosalarga munosabat bildirib, mazkur yondashuvlardan milliy totuvlikka erishish yo'lida qanday foydalanish imkoniyatlariga ega ekanligi tadqiq etilgan bo'lsada, biroq milliy totuvlikka erishishda titul millat bo'lgan o'zbek xalqining tolerant tabiati, insonparvarligi, mehr-shafqatliliigi, turli konfessiyalar va madaniy o'ziga xoslikka mansub aholi vakillarining milliy muloqot tizimidagi bag'rikenglik yondashuvini mustahkamlashning harakatlantiruvchi omili ekanligini atroflicha tadqiq etish dolzarb amaliy ahamiyatga ega.

O'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish hamda millatlararo totuvlikni mustahkamlash bo'yicha quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. O'quvchi-yoshlarda millatlararo totuvlikni ilmiy tadqiq qilishning nazariy metodologik asoslarini ishlab chiqish millatlararo totuvlik muammosini pedagogika fani doirasida o'rganilganlik holatini aniqlash va millatlararo totuvlikning mamlakat taraqqiyotida tutgan ijtimoiy-ma'naviy va siyosiy ahamiyatini ochib berish, o'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonlarini tadqiq qilish va tavsiyalar ishlab chiqish, o'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishning o'ziga xos pedagogik xususiyatlari aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz // - T.: O'zbekiston, 2017. 1-tom, 46-bet.
2. Abduvaliev F.N. «Yoshlarning ta'lim migratsiyasi: ijtimoiy sabablari, strukturasi va holati» mavzusida dissertatsiya avtoreferati. Toshkent – 2021 yil, 5-bet.
3. Bekmuradov M.B. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. Monografiya, Toshkent,
4. Qahhorova, G., & Ramazonov, J. (2023). AXBOROTLARNING TALABA YOSHLAR RUHIYATGA SALBIY TA'SIRINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 1(4 Part 2), 23-25.
5. Djalolovich, R. J. (2023). NIKOH-OILA MUNOSABATLARI SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 473-477.